

**Markaziy Bank tomonidan «Butunjahon jamg‘arish kuni»
doirasida tashkil etilayotgan “Moliyaviy savodxonlik chempionati”ni
o‘tkazish
QOIDALARI**

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Qoidalar «Butunjahon jamg‘arish kuni» doirasida o‘tkazilayotgan “Moliyaviy savodxonlik chempionati”ni (bundan buyon matnda Tanlov deb yuritiladi) tashkil etish tartibini belgilaydi.

1.2. Tanlov yoshlar e'tiborini moliyaviy savodxonlikka (tejamkorlikka) jalb etish maqsadida Markaziy Bank tomonidan intellektual musobaqa tarzida o‘tkazilmoqda.

1.3. Tanlov uch bosqichda o‘tkaziladi: saralash bosqichi, yarim final va final. Tanlovning saralash bosqichlari joriy yil 24 va 26 oktyabr kunlari o‘tkaziladi. Tanlov final bosqichi joriy yil 31 oktyabr kuni bo‘lib o‘tadi.

1.4. Tanlov davomida intellektual musobaqalardan maksimal ball to‘plagan ishtirokchilar orasidan g‘oliblar aniqlanadi.

2. TANLOV MAQSADI

Tanlov maqsadi talabalarning moliyaviy savodxonlik, moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish va moliyaviy matematika sohalaridagi bilimini oshirib, ta'lim va tadqiqot yo‘nalishidagi ishlarini rag‘batlantirishdan iborat. Buning uchun quyidagi masalalar yechiladi:

- o‘rta-maxsus va oliy ta'lim muassasalari talabalarining bank-moliya sohasidagi bilimlarini oshirish va moliyaviy savodxonlikni targ‘ib qilish;
- moliyaviy savodxonlik va moliyaviy matematika sohasida talabalarning ko‘nikmalarini hosil qilish.

3. TANLOV TASHKILOTCHILARI

Tanlov tashkilotchilari:

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki – Moliyaviy savodxonlikni oshirish va bank mutaxassislarini qayta tayyorlash departamenti;
- khiso.uz veb-sayti platformasi orqali Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro onlayn-olimpiada maktabi.

4. TANLOV ISHTIROKCHILARI

Tanlov kollej va litsey o'quvchilari hamda oliy ta'lim o'quv yurtlari talabalari o'rtasida o'tkaziladi.

5. TANLOVNI O'TKAZISH TARTIBI

Ishtirokchilarni ro'yxatga olish Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro onlayn-olimpiada maktabi veb-saytida (www.khiso.uz) **joriy yil 24 oktyabr, soat 18:00** ga qadar amalga oshiriladi.

Tanlov uch bosqichda o'tkaziladi: saralash, yarimfinal va final bosqichlari.

5.1 Tanlov saralash bosqichi

Tanlov saralash bosqichi **joriy yil 24 oktyabr kuni soat 17:00da** har bir qatnashuvchining individual ishtiroki bilan onlayn shaklda o'tkaziladi. Tanlov saralash bosqichining savollari **joriy yil 24 oktyabrdan** kechiktirilmasdan joylashtiriladi.

Tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar:

Talaba tanlovda ishtirok etish uchun **joriy yil 24 oktyabr kuni soat 17:59 dan** kechiktirmay tanlovning rasmiy sahifasida ro'yxatdan o'tishi lozim.

Tanlov tashkiliy qo'mitasi tanlov ishtirokchilarining ushbu Qoidalarda belgilangan shartlarga muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha hujjat talab qilish huquqiga ega.

Tanlovning saralash bosqichida apellyatsiya arizalari ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

5.2 Tanlov yarimfinal bosqichi

Tanlovning yarimfinal bosqichi **joriy yilning 26 oktyabr kuni soat 17:00 da** birinchi saralash bosqichidan o'tgan qatnashuvchilarning individual ishtiroki bilan onlayn shaklda bo'lib o'tadi. Yarimfinal topshiriqlarini bajarish uchun ro'yxatdan o'tish vaqtida ko'rsatilgan aloqa raqamiga SMS-xabar orqali tanlov rasmiy veb-saytiga tanlov yarimfinali havolasi yuboriladi.

Tanlov yarimfinal bosqichining savollari **joriy yil 26 oktyabrdan** kechiktirilmasdan joylashtiriladi.

Tanlovning yarimfinal bosqichida apellyatsiya arizalari ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

5.3 Tanlov final bosqichi

Tanlov final bosqichi **joriy yil 31 oktyabr kuni** yarimfinal bosqichidan o'tgan qatnashuvchilarning individual ishtiroki bilan onlayn shaklda bo'lib o'tadi. Final bosqichiga o'tgan ishtirokchilarga final bosqichiga ishtirok etish uchun onlayn-

platforma havolasi ro'yxatga olish paytida ko'rsatilgan aloqa raqamiga SMS-xabar orqali yuboriladi.

Tanlovning yarimfinal bosqichida apellyatsiya arizalari ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

6. G'OLIBLARNI TANLASH TARTIBI

6.1. Tanlov saralash bosqichi

Tanlov saralash bosqichi elektron test shaklida o'tkaziladi. Ishtirokchilar Tanlov dasturiga tegishli bo'lgan **10 ta test savollariga** bir soat mobaynida Tanlov rasmiy veb-saytida javob berishlari kerak.

Elektron test bo'yicha eng yuqori (maksimal) baho - **20 ball** etib belgilangan.

Tanlov saralash bosqichi natijalari bo'yicha yakuniy jadval tuzilib, ishtirokchilarning undagi o'rni to'plangan ballar yuqoridan pastga qarab kamayib borish asosida belgilanadi. Maksimal ball to'plab, yarim finalga chiqqan Tanlov ishtirokchilari soni **20 tadan** oshmasligi kerak.

6.2 Tanlov yarimfinali

Yarimfinal elektron formatdagi savol va masalalardan tashkil topadi. Bir soat mobaynida ishtirokchilar Tanlov dasturiga tegishli **10 tadan iborat bo'lgan test savollariga va 4 ta moliyaviy savodxonlik va moliyaviy matematikaga oid masalalarga** javob berishlari kerak bo'ladi.

Elektron test bo'yicha eng yuqori (maksimal) baho – **20 ball** etib belgilangan.

Moliyaviy savodxonlik va moliyaviy matematikaga oid 4 ta masalalar uchun eng yuqori (maksimal) baho – **20 ball** etib belgilangan.

Tanlov yarimfinal bosqichi natijalari bo'yicha yakuniy jadval tuzilib, ishtirokchilarning undagi o'rni saralash va yarimfinalda to'plangan ballar yuqoridan pastga qarab kamayib borish asosida belgilanadi. Maksimal ball to'plab, finalga chiqqan Tanlov ishtirokchilar soni **5 tadan** oshmasligi kerak.

6.3. Tanlov final bosqichi

Tanlov final bosqichi onlayn-platformasi onlayn musobaqa shaklida o'tkaziladi. Bir soat mobaynida qatnashchilar **ikkita tur va uyga vazifa mavzusining taqdimotini** o'tkazishlari kerak bo'ladi.

Tanlov final bosqichi bo'yicha eng yuqori (maksimal) baho – **40 ball** etib belgilangan.

Uy vazifasi: Joriy yil 26-27 oktyabrda final bosqichiga o'tgan ishtirokchilarga Tanlov tashkilotchilari tomonidan ishtirokchilarning ro'yxatdan o'tgan telefon raqamiga SMS-xabar orqali oldindan belgilangan uyga vazifa yuboriladi.

Joriy yil 31 oktyabrda ishtirokchilar tomonidan bajarilgan uyga vazifasi final bosqichida taqdimot etiladi.

Tanlov hakamlari hay'at a'zolari ishtirokchilarning tayyorlagan uy vazifalarini tekshirilib, Tanlov final bosqichining uchta tur natijalariga ko'ra yakuniy jadval tuzilib, undagi o'rni saralash, yarimfinal va finalda to'plangan ballar yuqoridan pastga qarab kamayib borish asosida belgilanadi. Tanlov finalida bitta g'olib tanlanib, barcha ishtirokchilar munosib taqdirlanadi.

7. TANLOV TASHKILY QO'MITASI VA TANLOV HAKAMLAR HAY'ATI

Tanlov tashkiliy qo'mitasi tarkibi Markaziy bank xodimlari va Al Xorazmiy nomidagi xalqaro onlayn-olimpiada maktabi xodimlaridan tashkil etilgan. Ular quyidagilarni amalga oshiradi:

- ishtirokchilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun havola e'loni;
- baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- onlayn test uchun savollar ishlab chiqish;
- onlayn test savollarini khiso.uz elektron platformasida joylashtirish;
- onlayn test o'tkazish tartibi va shartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash;
- Tanlov g'oliblarini taqdirlash bo'yicha dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Markaziy Bank ijtimoiy kanallarida onlayn test natijalari bo'yicha axborot berib borish.

Tanlov ishtirokchilari ishlarni baholash uchun Markaziy bank xodimlari vakillaridan tashkil topgan Tanlov hakamlar hay'ati a'zolari tarkibini tuzish.

Tanlov tashkiliy qo'mitasi 4-bandda ko'rsatilgan onlayn test shartlariga javob bermaydigan ishtirokchilarni ogohlantirishsiz musobaqadan chetlatish huquqiga ega.

8. TANLOVDA ISHTIROK ETISHGA ROZILIK VA ISHTIROKCHILARDAN KERAKLI TASDIQLAR

Tanlov jarayonida ishtirokchilar haqida olingan ma'lumot va ular topshirgan ishlar tashkilotchi va uchinchi shaxslar tomonidan axborot va hisobot berish maqsadida, shuningdek Tanlov bosh maqsadini amalga oshirishda (tanlov o'tishi jarayonlarini e'lon qilib borish maqsadida tanlov rasmiy veb-saytida, Markaziy bank ijtimoiy tarmoqlari, moliyaviy savodxonlik veb-saytidagi matbuot relizlari) moliyaviy savodxonlik va moliyaviy xizmatlar iste'molchilar huquqlarini himoya

qilish masalalariga omma e'tiborini jalb qilish uchun istalgan shaklda foydalanish mumkin. Buning uchun ishtirokchiga qo'shimcha haq to'lanmaydi va undan ruxsat olinmaydi. Tanlov ishtirok etish ishtirokchining onlayn test Qoidalarida belgilangan shartlarni o'qib chiqqanligini va ularga roziligini anglatadi.

Tanlov tashkiliy qo'mitasi tanlov ishtirokchilari haqidagi qisman yoki to'liq ma'lumotlarni nashr qilishga va ishtirokchilar tomonidan bajarilgan ishlarni tadqiqotlar olib borish maqsadida foydalanish huquqiga egaliklarini ma'lum qiladi.

Tanlov g'oliblari Markaziy bankning esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar.

Tanlov g'oliblarini taqdirlash va sovg'alarni taqdim etish Markaziy bankda o'tkaziladi.

9. ARIZALARNI TAQDIM ETISH

Tanlov ishtirok etmoqchi bo'lganlar khiso.uz elektron platformasida ro'yxatdan o'tishlari kerak.

Qo'shimcha savollar uchun quyidagi telefon raqamlariga murojaat qiling:
+99871 212-73-56; +99897 455-96-76

Ro'yxatdan o'tish uchun zarur ma'lumotlar

F.I.SH.	
Hudud, yashash manzili	
Telefon raqami	
O'qish joyi (OTM nomi)	